



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No1
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 326 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi.....	28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish	34
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning	37
Burkhonova Zarafuz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich	
The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition.....	40
Dilorom Poyonova	
Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish	45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna	
Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture.....	49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	52
Makhmudova Ugliy Baxtiyarovna	
Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish	57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinova	
Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish.....	61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish	65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi	
An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms	68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna	
The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs	71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna	
Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish	74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi	
Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish	77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi	
O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi	80
Sh. F. Mustafayeva	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	85
Turayev Alimjan Bahriddinovich	
The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development.....	88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina	
A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning.....	91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich	
Modern Education and Training Practices for Future Dentists	94
Turumova Marjona Bahodirovna	
Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish.....	98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna	



Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari	102
<i>Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari	106
<i>Xoldarova Mubina Qudratbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari	110
<i>Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi</i>	
Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков	114
<i>Абдуллаева Нигора Курбановна</i>	
Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры	118
<i>Мукимов Олим Эргашевич</i>	
Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework	122
<i>Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich</i>	
Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта	125
<i>Хужаниязова Гузаль Юлдашевна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish	130
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar	133
<i>Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi</i>	
Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida.....	138
<i>Rustamova Ma'mura Asqar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish	141
<i>Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna</i>	
The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language	144
<i>Tursunoy Ortiqova</i>	
Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili	149
<i>Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash ..	153
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	156
<i>Murtazayeva Nasiba Komiljonovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish	159
<i>Xusnidinova Saodat</i>	
Muloqot madaniyati asosida liderlik fazilatlarini shakllantirishning samarali usullari	163
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Integrating Quizlet, Kahoot, and Padlet Into Vocabulary Instruction: An Experimental Study With Undergraduate Philology Students.....	167
<i>Inoyatova Umida Boxadir qizi</i>	
Advantages and Disadvantages of Teaching Students Via Competent Based Approach in Order to Improve Their Listening and Speaking in Finland	171
<i>Abdukhakimova Kamola Akmalovna, Rahmatova Mohijahon Ahmad qizi</i>	
Kimyo ta'limida iqlim o'zgarishlariga oid ilmiy ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish	175
<i>Akbarova Saidaxon Rustamovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida pediatriya talabalari klinik fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim metodlarining roli.....	180
<i>Atadjanova Shaira Xalilovna, Umardulov Muxtorali Islomkulovich</i>	

Individual ta'lim muhiti asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy-metodik tayyorlashni takomillashtirish.....	185
<i>Azamatova Dildora Shuxrat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim-tarbiya tizimida raqamli ta'limni joriy etishning innovatsion yondashuvlari va samaradorlik omili.....	189
<i>Babayeva Dilnoz Xaydarovna</i>	
O'qish savodxonligini oshirishda xalqaro tadqiqotlarning o'rni (PISA va PIRLS)	192
<i>Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi</i>	
Yosh rahbarlarda boshqaruv stressining namoyon bo'lishi va boshqaruv faoliyatiga moslashuv muammolari: ta'lim tizimi sharoitida psixologik holat tahlili.....	195
<i>Djavgarova Dilfuza Shuxrat qizi</i>	
Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlardan foydalanish asosida oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish strategiyalari.....	199
<i>Duvlayeva Nozigul Xolmuxammad qizi</i>	
Enhancing English Learners' Pronunciation Through AI-Based Language Applications.....	203
<i>Egamova Munisa Khakim kizi</i>	
Maktab ta'lim tizimining dars jarayonlarida elektron qo'llanmalardan samarali foydalanish.....	208
<i>Kodirov Akbar Shuxratovich</i>	
Improving the Methodology of Teaching Biochemistry in Medical Higher Education Institutions Through Virtual Laboratory Tools	213
<i>Mamadaliyeva Zarina Rakhmat kizi</i>	
O'smirlarda kommunikativ tolerantlik muammosining nazariy-metodologik asoslari.....	218
<i>Mirsidikova Aziza Mirvohidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom turmush tarzini tashkil etishning nazariy asoslari	221
<i>Muxtorova Xusnidaxon Abdug'oprovna</i>	
Improving the Theoretical and Methodological Foundations for Integrating Generative Artificial Intelligence Technologies Into English Language Teaching in Higher Education.....	226
<i>Nigmatova Nozimakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi: zamonaviy yondashuvlar va ilmiy asoslar.....	229
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalarning ilmiy va ijodiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan axborot tizimini yaratish	233
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Ro'zimatova Saidaxon Abdivoxiid qizi</i>	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik muammo sifatida.....	237
<i>Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning kasbiy, madaniy va kommunikativ faoliyatlarini samarali tashkil etish	242
<i>Qurbonova G. M.</i>	
Kasbiy tayyorgarlik jarayonida refleksiv yondashuvning metodologik asoslari	245
<i>Raxmatova Shaxnoza Oybek qizi</i>	
Inkluziv ta'limda pedagogik diagnostika: maxsus ehtiyojli o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholash	248
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	252
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process	254
<i>Shaymatova Aziza</i>	
Dasturiy-metodik majmuani ishlab chiqish bosqichlari hamda pedagogik talablar.....	259
<i>Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi</i>	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	265
<i>Suyarova Orzigul Sodiq qizi</i>	



Yoshlarni nikohga tayyorlashda shaxsiy omillar va psixologik yetuklik.....	269
To'xtamatova Nargizaxon Abdullayevna, Buranova Sevara Sa'dullayevna	
O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida rahbarlarning liderlik kompetensiyalarining hozirgi holatini diagnostika qilish	273
Taylakova Dilnoza Norbekovna, Latifova Mavjuda Xurramovna	
Ta'limga o'qib tushinishni sun'iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari va pedagogik strategiyalari.....	276
Umarov Bahrom Norboyevich	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	281
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati.....	286
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganishning ahamiyati va undagi zamonaviy yondashuvlar	289
Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi	
O'smir shaxsida refleksiyani shakllanishida ota-ona munosabatlarning ta'siri	292
Yulchiboyeva Dilfuza Ergasheva	
Boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish.....	297
Zakirova Sohila Muxtoraliyevna, Nurmuhamedova Dilshoda Zaynobiddin qizi	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	302
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Ортодонтியда миотерапиya: миогимнастик дентоальвеоляр apparatlarni qo'llashning taqqoslama tavsifi	305
Tursunov Begzod Sherzodovich, Sayfulayeva Aziza Anvarovna	
Музейная педагогика на уроках воспитания в средней школе: методика включения музейных практик в процесс обучения и воспитания подростков	308
Умрихина Виктория Игоревна	
21st Century Dental Innovation Technologies: An Overview	314
Khojimurodov Burkhon Ravshanovich	
Цели и задачи педагогических систем, основанных на конструктивизме в общеобразовательных школах	317
Шарипова Шахноза Шавкат кизи	
Способы повышения мотивации учащихся при изучении русского языка.....	321
Эшонкулов Хамрокул Маматкулович	



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA GEYMIFIKATSIYA ORQALI TIL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna
FarDU o'qituvchisi, DcS

Nurmuhammedova Dilshoda Zaynobiddin qizi
FarDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida geymifikatsiya (o'yinlashtirish) texnologiyalaridan foydalanishning til kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritib beriladi. Geymifikatsiya o'quvchilarda motivatsiya uyg'otish, ularni dars mobaynida faol jalb etish, leksik, grammatik, fonetik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida tahlil etiladi. Jahon va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida geymifikatsiyaning pedagogik, psixologik va metodik jihatlari keng ko'rib chiqilgan hamda boshlang'ich ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: geymifikatsiya, boshlang'ich ta'lim, til kompetensiyasi, kommunikativ ko'nikmalar, interaktiv o'yinlar, innovatsion texnologiyalar, motivatsiya, lingvistik mashqlar.

Abstract: This article highlights the role and importance of using gamification technologies in the development of language competence in primary education. Gamification is analyzed as an effective tool for motivating students, actively involving them during the lesson, and developing lexical, grammatical, phonetic, and speech competencies. Based on the scientific views of world and local scientists, the pedagogical, psychological, and methodological aspects of gamification are widely considered and proposals are made for its implementation in primary education practice.

Key words: gamification, primary education, language competence, communicative skills, interactive games, innovative technologies, motivation, linguistic activities.

Аннотация: В данной статье освещается роль и важность использования технологий геймификации в развитии языковой компетенции в начальном образовании. Геймификация анализируется как эффективный инструмент мотивации учащихся, активного вовлечения их в процесс обучения и развития лексической, грамматической, фонетической и речевой компетенций. На основе научных взглядов мировых и местных ученых широко рассматриваются педагогические, психологические и методологические аспекты геймификации, а также предлагаются способы ее внедрения в практику начального образования.

Ключевые слова: геймификация, начальное образование, языковая компетентность, речевое развитие, интерактивные игры, инновационные технологии, учебная мотивация, лингвистические задания.

KIRISH

Bugungi globallashtirish, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Binobarin, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda til kompetentligini shakllantirish umumta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Til kompetentligining rivojlanganligi o'quvchining og'zaki va yozma muloqotda faol bo'lishini, fikrni ravon ifoda etishini, ijodkorlik va mustaqil fikrlashini ta'minlaydi. Shu bois zamonaviy pedagogika til o'qitish jarayonini faollashtirishga qaratilgan samarali metodlarni izlashda davom etmoqda. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun til kompetentligini rivojlantirish jarayonida an'anaviy o'qitish usullari bilan birga innovatsion, interaktiv va motivatsiyaning yuzaga chiqaruvchi metodlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunday usullardan biri – geymifikatsiya, ya'ni o'quv jarayonini turli o'yin elementlari orqali tashkil etish texnologiyasidir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik rivojlanish xususiyatlariga ko'ra o'yin orqali bilim olishga moyil bo'ladi. O'yin faoliyati ularning diqqatini jamlaydi, qiziqishini oshiradi, kommunikativ faolligini kuchaytiradi va mustaqil fikrlashga tutki bo'ladi. Shuning uchun dars jarayoniga o'yin mexanizmlarini kiritish til o'rganish jarayonini tabiiy, qiziqarli va samarali qiladi. Geymifikatsiya o'quvchilarni rag'batlantiruvchi ballar, badge (mukofot belgisi), darajalar, musobaqa elementlari, rolli jarayonlar va interaktiv topshiriqlar orqali o'quv faoliyatida faol ishtirok etishga undaydi.

Til kompetentligini shakllantirishda o'yinlashtirilgan yondashuvning ahamiyati shundaki, u o'quvchilarda tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutq, o'qish malakalari, shuningdek, leksik-grammatik ko'nikmalarni kompleks rivojlantiradi. Geymifikatsiya asosidagi topshiriqlar o'quvchilarni muloqotga kirishishga, mazmundor gaplar tuzishga, matn bilan ishlashni o'rganishga va ijodiy fikrlashga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limda geymifikatsiya elementlaridan maqsadli foydalanish o'quvchilarning til kompetentligini yuqori darajada shakllantirishga xizmat qiladigan samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuni tadqiq etish geymifikatsiya texnologiyalarining amaliy jihatlarini aniqlash, ularning o'quv jarayonidagi samaradorligini baholash va pedagogik tajribaga joriy etish imkonini beradi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida keng qo'llanila boshlagan innovatsion yondashuvlardan biri – geymifikatsiya (o'yinlashtirish) metodidir. Geymifikatsiya – o'yin elementlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchilarning faolligini oshirish, darsni qiziqarli va mazmunli tashkil etish va albatta o'quv faoliyatini motivatsiyalashga qaratilgan texnologiya hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologiyasi o'yin faoliyatiga asoslangani tufayli, ularning tilni o'rganish jarayoni aynan o'yin mexanizmlari orqali yanada samarali kechadi.

Geymifikatsiya faqatgina o'quvchilarni darsga jalb qilibgina qolmay, balki ularning lug'at boyligini kengaytiradi, grammatik birliklarni oson o'zlashtirishiga yordam beradi, fonetik ko'nikmalarni mustahkamlaydi va muloqot kompetensiyasining rivojlanishiga katta xizmat qiladi. Xalqaro tadqiqotlar ham, mahalliy tajribalar ham o'yinlashtirilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli oshirishi, ularning diqqatini jamlash, mustaqil ishlash va ijodiy fikrlashini rivojlantirishini tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limda o'yinlashtirish orqali til kompetentligini rivojlantirish masalasi bugungi kunda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb yo'nalishlardan biri sanaladi. Mazkur maqolada geymifikatsiyaning nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari, til kompetensiyalariga ta'siri hamda uni dars jarayoniga samarali integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar keng yoritib berilgan.

Boshlang'ich ta'limda til kompetentligining mazmuni. Boshlang'ich sinflarda til kompetentligini shakllantirish o'quvchining nutqiy faoliyatini rivojlantirishga, o'qish, tinglash, tinglab tushunish, og'zaki muloqot va yozuv ko'nikmalarini bosqichma-bosqich mustahkamlashga qaratilgan. Til kompetentligi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. **Tinglab tushunish kompetentligi** – o'qituvchi yoki tengdoshlar nutqini tushunish va mazmunini anglash.
2. **Og'zaki nutq kompetentligi** – muloqot jarayonida to'g'ri, ravon va mazmunli gapira olish.
3. **O'qish kompetentligi** – matnni o'qish, tushunish va tahlil qilish.
4. **Yozma nutq kompetentligi** – sodda gap va matnlarni mustaqil tuza olish.
5. **Leksik-grammatik kompetentlik** – so'z boyligi, so'z turkumlari, grammatik shakllar va gap tuzilishini o'zlashtirish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon olimlarining ilmiy qarashlari. J. Kappning geymifikatsiya nazariyasi. Geymifikatsiya tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan tadqiqotchilardan biri J.Kapp bo'lib, u o'yin elementlaridan foydalanish o'quv jarayonini mazmunan boyitishini, o'quvchida raqobat, qiziqish va intilish hissini uyg'otishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ball to'plash tizimi, badge'lar, daraja ko'tarish, reytinglar kabi elementlar o'quvchilarning nutqiy faoliyatini sezilarli darajada oshiradi^[1].

J. Geening til o'rganishdagi o'yinlar haqidagi g'oyalari. Gee o'yinlar o'quvchining kognitiv jarayonlarini faollashtirishini, o'rganilayotgan tilga doir vaziyatlarni modellashirish orqali kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, o'yinlar nutqiy faollikni kuchaytiradi va o'quvchining til bilan mustaqil muloqot qilish imkoniyatini kengaytiradi^[2].

O'zbekistonlik olimlarning qarashlari. U. Nishonaliyev boshlang'ich sinflarda o'yinli metodlar orqali til o'qitish o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, nutqiy faollik va ko'nikmalarni mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi^[3].

Sh. Hasanov. Hasanovning tadqiqotlarida ta'lim jarayoniga innovatsion-uslubiy yondashuvlarni, jumladan geymifikatsiya unsurlarini tatbiq etish o'quv faoliyatini jonlantirish, o'quvchining dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytirishi qayd etiladi^[4].

N. Qosimova. Qosimovaga ko'ra, boshlang'ich sinflarda til o'rgatishda o'yinlar grammatik birliklarni yengilroq o'zlashtirishga, eslab qolish jarayonini kuchaytirishga yordam beradi. O'yinlar nutqiy mashqlarni ham yanada samarali qiladi^[5].

M. Sodiqova. Sodiqova til o'rgatishda multimedia vositalari, interaktiv o'yinlar va quvnoq testlar fonetik va leksik kompetensiyani shakllantirishga imkon berishini ta'kidlaydi^[6].



Geymifikatsiya til kompetentligiga ta'sirining psixologik asoslari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin faoliyati yetakchi bo'lgani sababli, har qanday o'quv vazifasi o'yin shaklida berilganda ular faolroq, ishtiyoq, kuchli qiziqish va yuqori motivatsiya bilan qatnashadi. Geymifikatsiyalashtirilgan tizimlar o'quvchilarning diqqatini jamlaydi, mustaqil fikrlashga undaydi va o'zlashtirishni barqarorlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Til kompetentligining tarkibiy qismlariga ta'siri:

1. **Leksik kompetensiya.** So'z boyligini kengaytirish uchun "So'z top", "Kim tez eslab topadi?", "So'z zanjiri", "Rasmga mos so'zni tanla" kabi o'yinlar samarali bo'ladi. Bunday o'yinlar yangi so'zlarni yodlab olishni tezlashtiradi va so'z boyligini oshiradi.
2. **Grammatik kompetensiya.** "Gapni to'ldir", "To'g'ri yoki noto'g'ri", "Grammatik duel", "O'yin kartochkalari orqali sinov topshiriqlari" grammatik bilimlarni mustahkamlaydi.
3. **Fonetik kompetensiya.** Audio-o'yinlar, talaffuz viktorinalari, "Qaysi tovushni eshitding?", "Tovushni top" kabi topshiriqlar talaffuzni yaxshilaydi.
4. **Nutqiy kompetensiya.** Rolli o'yinlar, mini-sahna mashqlari, dialog o'yinlari nutqiy tafakkurni va muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Geymifikatsiya vositalari samaradorligi

Onlayn platformalar:

1. **Kahoot** – tezkor testlar va raqobatli o'yinlar orqali mavzuni mustahkamlaydi.
2. **Quizizz** – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.
3. **Wordwall** – lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi.
4. **Baamboozle** – guruhli interaktiv mashqlar uchun qulay.

Oflayn o'yinlar:

- kartochkali o'yinlar,
- rol o'yinlari,
- mini-questlar,
- "Topshiriq yashiringan quti" uslubi.

Empirik kuzatishlar asosidagi natijalar

Geymifikatsiya orqali til kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olingan tahlillar shuni ko'rsatadiki:

- o'quvchilarning darsga qiziqishi 40–60 % ga oshgan;
- mustaqil ishlash ko'nikmasi sezilarli faollashgan;
- o'quvchilarning o'z fikrini og'zaki bayon etish malakasi sifat jihatdan yaxshilangan;
- nutqiy xatolar soni kamaygan;
- o'quvchilar dars jarayonida quyi va yuqori darajali topshiriqlarni tezroq bajargan.

Tinglab tushunish kompetentligini rivojlantirish

Geymifikatsiya asosida tinglab tushunishga doir o'yinlar quyidagicha tashkil etiladi:

1. **"Tingla va top"** – o'qituvchi so'z yoki gaplarni aytadi, o'quvchi mos rasm yoki so'zni tanlaydi.
2. **"Audio kvest"** – qisqa audioyozuv asosida vazifalarni bajarish (to'g'ri javob topish, buyruqni bajarish).
3. **"Sokin ovozni top"** – past ovozda aytilgan so'zni aniqlash musobaqasi.

Bu o'yinlar o'quvchilarning eshitish diqqatini kuchaytiradi va mazmunni tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi.



Og'zaki nutq kompetentligini rivojlantirish

O'yinlashtirilgan jarayonlar og'zaki nutqni shakllantirishda eng samarali hisoblanadi:

1. **Rolli o'yinlar** ("Do'konda", "Kasblar dunyosida", "Sayohat")
2. **"Gap zanjiri"** – o'quvchilar navbat bilan bir-biriga bog'langan gaplar aytadilar.
3. **"Kim ko'proq aytadi?"** – berilgan mavzu bo'yicha so'zlar sanash yoki gaplar tuzish musobaqasi.

Bunday o'yinlar o'quvchilarning muloqotga kirishish, fikrni aniq ifodalash va to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'qish kompetentligini rivojlantirish

Geymifikatsiya elementlari matn bilan ishlashni qiziqarli qiladi:

1. **"Sirli kod"** – QR-kod orqali matn yoki topshiriqlarni ochish.
2. **"Matn ichidan top"** – matnda yashirilgan so'z yoki gaplarni aniqlash.
3. **"Tez o'qish musobaqasi"** – matnni to'g'ri va ravon o'qish reytingi.

Bu metodlar o'qish tezligi, tushunish, asosiy g'oyani aniqlash kabi ko'nikmalarni mustahkamlaydi.

Yozma nutq kompetentligini rivojlantirish

Yozuvni o'rgatishda o'yinlashgan yondashuv quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

1. **"O'yin xaritasi"** – har bir bosqichda yangi yozuv topshirig'i beriladi.
2. **"Eng yaxshi hikoya"** – o'quvchilar matn tuzib ball yig'adilar.
3. **"Gap tuzish poygasi"** – berilgan so'zlardan eng tez va to'g'ri gap tuzish.

Bu jarayon yozma savodxonlikni bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'yinlashtirish boshlang'ich ta'lim tizimida til kompetentligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. U o'quvchilarda qiziqish, ishtiyoq, motivatsiya va faol ishtirokni kuchaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi. Geymifikatsiya o'quvchilarning leksik, grammatik, fonetik va muloqot kompetensiyalarining barchasiga bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatadigan universal texnologiya sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish til kompetentligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi o'tkazilgan tahlillar va amaliy misollar orqali tasdiqlandi. O'yin elementlariga asoslangan ta'lim o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga mos bo'lib, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, nutqiy faolligini kuchaytiradi hamda ta'lim jarayonini jonlantiradi. Geymifikatsiya o'quvchilarda tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutq, o'qish malakalari hamda leksik-grammatik ko'nikmalarni tabiiy va interaktiv tarzda shakllantirish imkonini yaratib beradi.

O'yinlashtirilgan topshiriqlar o'quvchilarni faol fikrlashga, mustaqil o'rganishga, muloqot jarayonida o'z fikrini aniq ifodalashga o'rgatadi. Shuningdek, musobaqa, rag'batlantirish, bosqichma-bosqich o'sish kabi o'yin elementlari o'quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, darsda ishtirok etish darajasini oshiradi va o'quv jarayonini ijobiy ijobiy tomonga yo'naltirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchidan puxta metodik tayyorgarlik, dars maqsadiga mos topshiriqlar tanlash, jarayonni optimal boshqarish va o'yin elementlarining ta'limiy mazmunini saqlashni talab etadi. To'g'ri tashkil etilgan geymifikatsiyalashtirilgan dars nafaqat til kompetentligini rivojlantiradi, balki o'quvchilarning ijtimoiy faolligi, ijodiy fikrlashi va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Umuman olganda, geymifikatsiya boshlang'ich ta'limda innovatsion va samarali pedagogik yondashuv bo'lib, u o'quvchilarda tilga oid kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga, ta'lim sifatini oshirishga hamda o'quvchilarni faol va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Takliflar:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun geymifikatsiya bo'yicha maxsus amaliy seminarlar tashkil etish.
2. Har bir mavzu uchun mahalliy kontentga moslashtirilgan o'yinlar to'plamini ishlab chiqish.



3. Maktablar uchun o'yinlashtirilgan reyting tizimini yaratish va rag'batlantirish mexanizmlarini takomillash-tirish.
4. Onlayn o'yin platformalaridan doimiy foydalanish uchun elektron metodik qo'llanmalar ishlab chiqish.
5. Dars jarayonida juftlik va guruhli o'yinlar orqali muloqot kompetensiyasini kuchaytirish.
6. O'yin elementlarini differensial yondashuv asosida qo'llab, turli darajadagi o'quvchilarni rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-Based Methods and Strategies for Training and Education. San Francisco: Pfeiffer. – 336 p.
2. Gee, J. P. (2007). What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. 2nd ed. New York: Palgrave Macmillan. – 256 p.
3. Nishonaliyev, U. (2018). Boshlang'ich ta'lim metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. – 240 b.
4. Hasanov, Sh. (2019). Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya. – 220 b.
5. Qosimova, N. (2017). Til o'qitish metodikasi. Toshkent: Tafakkur nashriyoti. – 198 b.
6. Sodiqova, M. (2020). Innovatsion metodlar asosida til o'rgatish. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo. – 176 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.